



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 6, June, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Interpretation Of Ethical Issues In The Heritage Of The Scholarships Of Movarounnahr

A.Allaberganov

Teacher of the Department of “Aqeed and
Jurisprudential Sciences” of the Tashkent Islamic Institute

Abstract

This article examines the interpretation of ethical and moral issues in the heritage of the scholars of Mawarannahr. It highlights the moral and educational views of Imam al-Bukhari, Imam al-Tirmidhi, Abu Dawud, Abdullah ibn Mubarak al-Marwazi, Abu Layth al-Samarqandi, Yusuf Khos Hojib, Hakim al-Tirmidhi, and Sufi Olloyor. Their works emphasize such values as compassion, justice, tolerance, generosity, pursuit of knowledge, respect for parents, and humanism. The article discusses the significance of these virtues in social development and human perfection, while also demonstrating their relevance in the moral education of the younger generation today.

Keywords: Mawarannahr, ethics, spiritual heritage, Imam al-Bukhari, Yusuf Khos Hojib, Abu Layth al-Samarqandi, justice, tolerance, generosity, humanism.

Movarounnahr Allomalari Merosida Odob- Axloq Masalalarining Talqini

Toshkent islom instituti “Aqoid va
fihiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

A.Allaberganov



Annotatsiya

Mazkur maqolada Movarounnahr allomalari merosida odob-axloq masalalarining talqini tahlil qilinadi. Unda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Dovud, Abdulloh ibn Muborak Marvaziy, Abu Lays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Hakim Termiziy va So'fi Olloyor kabi mutafakkirlarning axloqiy qarashlari yoritilgan. Allomalar asarlarida mehr-muhabbat, adolat, bag'rikenglik, muruvvat, ilmga intilish, ota-onaga hurmat va insonparvarlik kabi fazilatlarining jamiyat taraqqiyoti hamda inson kamolotidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, ushbu ma'naviy merosning bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, odob-axloq, ma'naviy meros, Imom Buxoriy, Yusuf Xos Hojib, Abu Lays Samarqandiy, adolat, bag'rikenglik, muruvvat, insonparvarlik.

Аннотация

В данной статье анализируется трактовка нравственно-этических вопросов в наследии ученых Мавераннахра. Освещаются морально-этические взгляды Имама Бухари, Имама Термизи, Абу Давуда, Абдуллаха ибн Мубарака Марвази, Абу Лайса Самарканди, Юсуфа Хаса Хаджиба, Хакима Термизи и Суфи Аллаяра. В их трудах особое внимание уделяется таким ценностям, как любовь и милосердие, справедливость, толерантность, благородство, стремление к знаниям, уважение к родителям и гуманизм. В статье раскрывается значение этих нравственных принципов в развитии общества и совершенствовании личности, а также их роль в воспитании современного поколения.

Ключевые слова: Мавераннахр, нравственность, духовное наследие, Имам Бухари, Юсуф Хас Хаджиб, Абу Лайс Самарканди, справедливость, толерантность, гуманизм, воспитание.

Jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti masalalari tahlil qilinarkan ekan, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi alohida ahamiyat kasb etishi ayon bo'ladi. Xususan, mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, ijtimoiy birdamlik, yordamga muhtoj qatlamlarga ko'maklashish kabi qadriyatlar har qanday sog'lom jamiyatning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu qadriyatlar insoniyat tafakkuri



rivojining turli bosqichlarida shakllanib, universal axloqiy tamoyillar darajasiga ko'tarilgan. Mazkur tamoyillar, avvalo, oila institutidan boshlanib, kengroq ijtimoiy muhitga qo'shnichilik, qarindoshlik va umuman jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga tatbiq etiladi. Insonning ota-onaga hurmat, yaqinlarga e'tibor, begonalarga nisbatan ham insonparvarlik ruhida munosabatda bo'lishi uning ma'naviy yetukligining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Shu jihatdan, axloqiy me'yorlar faqat shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi.

Axloqiy qarashlar tizimi tarixan turli manbalarda aks etgan bo'lib, ular orasida odob-axloqni tartibga soluvchi, inson xulq-atvorini me'yorlashtiruvchi g'oyalar muhim o'rin tutadi. Ushbu manbalarda insonning jamiyatdagi o'rni, uning boshqalarga nisbatan mas'uliyati, adolat, saxovat, bag'rikenglik kabi tushunchalar markaziy mavzu sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, insonning ehtiyojmand qatlamlarga yordam berishi, ijtimoiy tenglik va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim axloqiy prinsip sifatida qaraladi. Shuningdek, tarixiy-adabiy merosda odob masalalariga bag'ishlangan alohida asar va bo'limlarning mavjudligi bu masalaning naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Bunga misol qilib, vatandoshimiz, muhaddislar sultoni Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning "Al-Adabu al-mufrad" kitobini keltirish mumkin.

Imom Buxoriy shoh asari "Al-jome'u-s-sahih"da "Kitob al-adab"ga o'rin berganlariga qaramay, bu masalani o'ta ahamiyatli bilganlaridan alohida kitob qilishga o'tganlar. U kishi "al-adab al-mufrad" kitobida turli odoblarga oid bir ming uch yuz yigirma ikkita hadisi sharifni olti yuz qirq to'rtta bobda keltirgan¹. "Al-adab al-mufrad" kitobi juda muhim bo'lgan odob-axloqqa tegishli hadislarini jamlagan. Ushbu kitobni islom odob-axloq normalari sifatida ham qo'llash mumkin. Abu Iso Termiziyning "Sunan" asaridagi "Kitob az-zuhd", "Kitob al-vara", "Kitob al-adab" kabi juda ko'plab boblar odob-axloqqa doir hisoblanadi. Abu Dovudning "Sunan" asari ham "Kitob al-ilm", "Kitob al-adab" kabi boblarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularda odob-axloqqa doir ta'limotlarni topish mumkin². Imom Buxoriyning ustozlari Abdulloh ibn Muborak Marvaziyning "Kitob az-zuhd

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 7-8.

² Abu Dovud. Sunan. – Ar-Riyod: Maktaba al-maorif lin-nashr, 2003. – B. 1162-1195.



var-raoqi” asari Movarounnahrda alohida odob-axloqqa bag‘ishlab yozilgan asarlardan hisoblanadi. Unda zuhd, ya’ni zohidlik – dunyodan yuz o‘g‘irish, dunyoga aldanib qolmaslik, taqvo va parhezkorlikdan tashqari raqoqiqlar, ya’ni qalbni yumshatadigan narsalar, eshitganda, o‘qiganda qalb titrab, yumshoq bo‘ladigan narsalar ham berilgan. Ularga turli xil ibratli qissalar, hikoya va rivoyatlar kiradi.

Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul-g‘ofiliyn”, “Bo‘ston al-orifiyn” kabi asarlarini ham to‘liq odob-axloqqa oid asar deyish mumkin. “Tanbehul-g‘ofiliyn” asarida “Ixlos”, “Rizo”, “Muloyimlik”, “Kasallik va kasalni ko‘rish fazilati”, “Tortishib qolgan kishilarning o‘rtasini isloh qilish va arazlashishdan qaytarish”, “Mag‘rurlanish” kabi boblar mavjud. Bundan tashqari, unda turli ibratli hikoya va rivoyatlar ham berilgan. Ushbu asarning boshqa asarlardan farqi, bunda ulamolarning so‘zlari va pand-nasihatlar ham berilgan³.

“Bo‘ston al-orifiyn” asarining birinchi bobi “Ilm talab qilish” bilan boshlangan. Keyingi boblari “Ilmni ishonchli kishilardan olish”, “Eshituvchining odobi”, “Ta’lim oluvchining odobi”, “Do‘stlarni ziyorat qilish”, “Salomlashish”, “Chiroyli bo‘lib yurish”, “Muruvvat”, “Aql”, “Odob” va boshqa shunga o‘xshash boblardan iborat⁴.

Odob-axloqqa bag‘ishlangan ilk asarlardan biri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridir. Muallif ushbu asarda to‘rt qahramon timsolida insonlarga murojaat qiladi. Undagi pand-nasihatlar faqat podshoh, vazir, uning o‘g‘li va saroy ahliga daxldor emas, balki ular butun isnoniyatga daxldordir. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar adolat, xalqparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, ko‘ngil to‘qligi, insonlarga yordam – muruvvat, bag‘rikenglik kabi xislatlardir. Bundan tashqari, bu asarda aytilgan gaplar faqat o‘sha davr kishilari uchun emas, balki hozirgi kun odamlari uchun ham g‘oyat ahamiyatli va dolzarbdir.

Hakim Termiziyning “Al-Manhiyyot” asari ham odob-axloqqa bag‘ishlangan asarlardan hisoblanadi. So‘fi Olloyor ham Movarounnahrda odob-axloqqa oid asarlarning salmog‘i oshishiga o‘z hissasini qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning “Murod al-orifiyn”, “Sabot al-ojiziyn” kabi asarlarini alohida o‘rganish

³ Faqih Abu Lays Samarqandiy. Tanbehul g‘ofilin. – Toshkent: Mutarjim, 2005. – B. 388.

⁴ Faqih Abu Lays Samarqandiy. Bo‘stonul orifin. – Toshkent: Movarounnahr, 2008. – B. 154.



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 6, June, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

lozim. “Sabot al-ojiziyn” asarida aqida, fiqh va qissalar berilishi bilan birga, odob-axloqqa doir juda ko‘p mavzularni yoritgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinası. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 7-8.
2. Abu Dovud. Sunan. – Ar-Riyod: Maktaba al-maorif lin-nashr, 2003. – B. 1162-1195.
3. Faqih Abu Lays Samarqandiy. Tanbehul g‘ofilin. – Toshkent: Mutarjim, 2005. – B. 388.
4. Faqih Abu Lays Samarqandiy. Bo‘stonul orifin. – Toshkent: Movarounnahr, 2008. – B. 154.
5. Mahmud Zamaxshariy. Rabi‘ al-abror va nusus al-axyor. - J. I. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2006. – B. 48.
6. Mahmud Zamaxshariy. Al-Mufasssal fi san’at al-e’rob. – Bayrut: Dor al-jild, 1993. – B. 245.